

INSTITUT KENGASHINING NAVBATDAGI YIG`ILISHI BO`LIB O`TDI

O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida institut Kengashining navbatdagi yig`ilishi bo`lib o`tdi.



Yig`ilish avvalida institutda ko`p yillik samarali ilmiy-pedagogik faoliyati, fidokorona mehnati hamda san`at va madaniyat sohasi rivojiga qo`shgan munosib hissasi, shuningdek, tavallud ayyomi munosabati bilan "San`atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası professori Sabohat Haytmatova hamda "Dramatik teatr va kino san`ati" kafedrası mudiri v.b. Zamfira Axmedovalar e`tirof etilib, institut rektori tomonidan ularga tashakkurnoma va esdalik sovg`alari topshirildi.



Sundan so'ng yig'ilish kun tartibidagi masalalarga otilib, quyidagilar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi.

Jumladan, 2025/2026-o'quv yilida rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga asosan (o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar yuzasidan) amalga oshirilgan ishlar;

– 2025/2026-o'quv yili birinchi yarim yillik yakunlari (yakuniy nazorat natijalari);



– talabalarning malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish xususida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-

yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi
797-sonli qarorining institutdagi ijrosi;



- ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga hujjatlarni yuborish;
- 2026-yil uchun maqsadli investitsiyalar hamda xalqaro hamkorlik masalalari bo’yicha kafedralar kesimida rejalashtirilgan vazifalar;
- Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limining 2026-yil ish rejasini tasdiqlash, shuningdek, ijro intizomi kabi turli masalalar muhokama qilindi.



□ Kengash yig'ilishi so'ngida barcha mas'ullarga kun tartibidagi masalalar bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.



TABRIK

Poytaxtimizdagi “Renessans Hall” konsert zalida “Yangi O‘zbekiston yulduzlari” madaniyat va san‘at milliy mukofoti g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu nufuzli tadbir doirasida madaniyat va san‘at sohasida fidokorona mehnat qilib kelayotgan, yuksak ijodiy natijalarga erishgan ijodkorlar va soha vakillari munosib e‘tirof etildi.

Mazkur marosimda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “San‘atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida dotsenti, taniqli dramaturg Qo‘chqor Norqobil “Yilning eng yaxshi dramaturgi” nominatsiyasi g‘olibi deb topildi.

Ushbu mukofot hamkasbimizning milliy dramaturgiya rivojiga qo‘shayotgan salmoqli hissasi, samarali ijodiy faoliyati hamda yosh avlodni tarbiyalash yo‘lidagi ko‘p yillik mehnatlarining munosib e‘tirofi bo‘ldi.

Shu munosabat bilan, institutimiz jamoasi va o‘zim nomimdan Qo‘chqor Norqobilni ushbu e‘tirof bilan samimiy muborakbod etib, kelgusi ijodiy faoliyatida ulkan yutuqlar tilayman.

Nodirbek Sayfullayev,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori,
professor.



INSTITUTDA 2025/2026 O'QUV YILI KUZGI SEMESTRIDA O'TILGAN FANLAR BO'YICHA YAKUNIY NAZORAT IMTIHONLARI BO'LIB O'TMOQDA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2025/2026-o'quv yili kuzgi semestrida o'tilgan fanlar bo'yicha yakuniy nazorat jarayonlari davom etmoqda.



Ushbu jarayonlarni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, shuningdek, professor-o'qituvchilar bevosita kuzatib borishmoqda.



Xususan, bugun rektor Cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nailishi 1-kurs talabalarining "Ansabl sinfi", Dramatik teatr va kino aktyorligi ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalarining "Vokal" fanidan, "Kinoteleopratorlik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalarining "Fotokompozitsiya", Estrada aktyorligi ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalarining "Aktyorlik mahorati" fanlaridan yakuniy nazoratlarida ishtirok etdi.



Ta'kidlash joizki, ustozlar tomonidan ayni damda imtihon topshirayotgan talabalarining yutuqlari e'tirof etilishi barobarida, kelgusi ijodi uchun muhim bo'lgan ko'rsatma va tavsiyalar ham berib o'tilmoqda.



Rektor talaba-yoshlar va professor o'qituvchilar bilan muloqot qilar ekan, bugun yurtimizda san'at va madaniyat rivojiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik yuksak darajada ekanligini qayd etib, oldimizda turgan eng muhim vazifa bu imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda yurtimiz san'ati rivojiga hissa qo'shish ekanligini ta'kidladi.



Yakuniy nazoratlar barcha ta'lim yo'nalishlarida belgilangan tartibda davom etmoqda.

Tyantszin musiq konservatoriyasi tomonidan talabalar uchun onlayn mahorat darsi tashkil etildi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Vokal" kafedrasida Xitoy Xalq Respublikasining Tyantszin musiq konservatoriyasi tomonidan talabalar uchun onlayn mahorat darsi tashkil etildi.



Unda Tyantszin musiqa konservatoriyasi prezidenti Van Xunvey, Vitse-prezident Bao Yan, Xalqaro almashinuv va hamkorlik markazi direktori Fen Ley, Xalqaro almashinuv va hamkorlik markazi direktori o'rinbosari Kun Veyfen, Opera kolleji dekani o'rinbosari Van Zenan, Xalqaro almashinuv va hamkorlik markazining tashqi aloqalar bo'yicha mutaxassisi Chen Lin, Fortepiano bo'limi direktori, shuningdek, akkordeon bo'yicha o'qitish va ilmiy tadqiqotlar seksiyasi rahbari Lyu Juy, Opera kollejining fortepiano yo'nalishi badiiy rahbari Bay Tyanyi, Opera kolleji bakalavriat bosqichi talabasi – Yan Guanlar ishtirok etishdi.



Shiningdek, institutimizdan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yoqubov , "Vokal" kafedrası mudiri, professor Saodat Muzafarova, "Cholg'u ijrochiligi" kafedrası mudiri, dotsent Feruza Hakimova, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası mudiri, dotsent Husniddin Xusanov, shuningdek kafedra professor-o'qituvchilari hamda "Vokal ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi talabalari qatnashdi.



Mahorat darsi jarayonida “Vokal ijrochiligi” ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi Yag’yayeva Leniyar tomonidan B.Umidjonov musiqasi va Oybek so’zlariga yozilgan “Sendadur ko’zlarim” qo’shig’i hamda Jakomo Puchchinining “Jovanni Skikki” operasidan Laurettaning ariyasi ijro etildi. Pedagog – kafedra dotsenti Nodira Kabulova. Jo’rnavor – Feruza Abdullayeva.



Mahorat darsi yakunida konservatoriya mutaxassisleri tomonidan ijrolar bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi, xususan vokal texnikasi, nafas olish, sahna madaniyati va obraz ustida ishlashga doir maslahatlar bildirildi. Tadbir ishtirokchilari ushbu xalqaro hamkorlik vokal ta'limi sifatini yanada oshirishga xizmat qilishini ta'kidladilar.



Umid qilamizki, ushbu mahorat darsi talabalarning kasbiy mahoratini oshirish, vokal ijrochiligi sohasida xalqaro tajriba almashishga xizmat qiladi.

REKTOR RAHBARLIGIDA TAHRIR HAY'ATI YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida "O'zDSMI xabarlari" bosma jurnali hamda "O'zbekiston madaniyati va san'ati" va "Ijodiy parvoz" elektron jurnallari tahrir hay'ati yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Yig'ilishda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yakubov, shuningdek, tahrir hay'ati a'zolari hamda bo'lim xodimlari ishtirok etdilar.



Yig'ilish davomida N.Sayfullayev jurnallar faoliyatini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini alohida qayd etdi. Rektor tomonidan nashrlarning ilmiy saviyasini oshirish, xalqaro talablarga moslashtirish, tahrir jarayonini tizimli tashkil etish hamda jurnal faoliyati bo'yicha aniq yo'l xaritasini ishlab chiqish bo'yicha tegishli vazifalar belgilab berildi.



Yig'ilish chog'ida tahrir hay'ati tarkibini qayta ko'rib chiqish, bo'lim faoliyati samaradorligini oshirish hamda "Ijodiy parvoz" elektron jurnalining nizomini tasdiqlash masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, yosh tadqiqotchilar va iqtidorli talabalarni jalb etish, ilmiy maqolalar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.



Bundan tashqari muhokama chog'ida "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари" ilmiy jurnalining bugungi faoliyati, uning OAK ro'yxatidagi o'rni va nashr samaradorligi muhokama qilindi. Jurnal san'atshunoslik yo'nalishi bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalarini e'lon qilishga xizmat qilayotgani, maqolalar qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi.



Jurnalga kelib tushayotgan maqolalar sonining ortib borishi hamda ularni tahlil qilish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida tahrir hay'ati tarkibini optimallashtirish bo'yicha takliflar ham bildirildi. Ayrim a'zolar sog'lig'i yoki boshqa nashrlardagi faoliyati sababli tahrir hay'ati tarkibidan chiqarilishi, ularning o'rniga sohaga ixtisoslashgan yangi mutaxassislarni jalb etish taklif qilindi.



Shuningdek, jurnalni “Kutubxona” va “Pedagogika” ixtisosliklari bo'yicha OAK ro'yxatiga kiritish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Majlisda “O'zbekiston madaniyati va san'ati” ilmiy-uslubiy, nazariy-amaliy elektron jurnalining faoliyati ham muhokama qilindi. Mazkur jurnal 2025-yilda OAK ro'yxatiga kiritilgani, qisqa fursatda bir nechta sonlari chop etilgani va institut hisobiga investitsiya jalb etilgani ta'kidlandi.



Jurnal faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur texnik jihozlar bilan ta'minlash, dizayn va maket ishlarini shartnoma asosida amalga oshirish, shuningdek, xalqaro ilmiy bazalarga integratsiyalashish maqsadida jurnalning rasmiy veb-saytini yaratish zarurligi qayd etildi.



Yig'ilishda "Ijodiy parvoz" nashrini adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop, madaniy-ma'rifiy elektron jurnal shakliga o'tkazish masalasi ko'rib chiqildi. Ushbu jurnal talabalar va yosh ijodkorlarning ilmiy va ijodiy ishlarini targ'ib etishga qaratildi. Jurnal nizomi hamda tahrir hay'ati a'zolari tarkibi muhokama qilinib, tegishli takliflar bildirildi.



Majlis yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

2026-yil 28-yanvar kuni soat 11.00 da Sh. Pardayevning dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

**2026-YIL 28-YANVAR KUNI SOAT 11.00 DA O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

1. Pardayev Shavkat Nizomovichning 17.00.01 – Teatr san’ati ixtisosligi bo’yicha **“Kattaqo’rg’on teatri: shakllanish va taraqqiyot bosqichlari”** mavzusidagi san’atshunoslik bo’yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “A” binosi,

2-qavat, majlislar zalida 11.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo’lyozmasi bilan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2026-yil 28-yanvar kuni soat 14.00 da B. Umarxodjayevning dissertatsiyasi muhokamasi.

E’LON

2026-YIL 28-YANVAR KUNI SOAT 14.00 DA O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH MAJLISI BO’LIB O’TADI

KUN TARTIBI:

Umarxodjayev Bosit Boxadirovichning 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo’yicha **“Milliy o’zlikni anglashda madaniyat muassasalarining o’rni”**

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 0'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va 0'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash hamda uning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga qaratilgan o'quv-seminar bo'lib o'tdi.



Seminarda institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Shohbek Ergashev, "Xalq ijodiyoti" hamda "Kutubxona-axborot" fakultetlari professor-o'qituvchilari, institut xodimlari ishtirok etishdi.



Tadbir davomida Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Jamoatchilik kengashi raisi, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Abduxalil Mavrulov Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan muhim yo'nalishlar – barqaror iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy sohalarni yanada takomillashtirish, ta'lim va madaniyat tizimini rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurash masalalari yuzasidan batafsil ma'ruza qildi.



Shuningdek, Murojaatnomada iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududlar rivojiga xizmat qiluvchi dasturlar alohida e'tirof etilgani ta'kidlandi.

Seminar jarayonida ta'lim sohasiga oid ustuvor vazifalar – zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash, yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida rivojlantirish masalalariga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Tadbir yakunida Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarning mazmun-mohiyatini nafaqat professor-o'qituvchilar, balki talabalar o'rtasida ham keng va tizimli tushuntirish zarurligi alohida ta'kidlandi.



Zeroki, bugungi talaba-yoshlar mamlakatimizda boshlangan Uchinchi Renessans bunyodkorlari sifatida zamonaviy bilim, yuksak tafakkur va mustahkam ma'naviy pozitsiyaga ega bo'lishi lozim. Shu bois Murojaatnomada belgilangan maqsad va vazifalarni yosh avlod ongiga singdirish, ularni Vatan taraqqiyoti yo'lida faol ishtirok etishga chorlash muhim vazifa ekani qayd etildi.